

TA'LIM VA TARBIYA G'OYASINING DAVOMIYLIGI: JADIDLAR VA SHAHODAT ISAXONOVA IJODIDA

Sharofova Nodira Sodiq qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti magistranti

Annotatsiya. *Jadidchilik harakati namoyondalaridan bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilar xalqni ma'rifatli va ilimli qilishda o'z dasturlarini ishlab chiqqanlar, qolaversa o'zlarining yuksak mazmunli asarlari bilan xalqni ta'limga, tarbiyaga chorlaganlar. Shuningdek, ushbu g'oya bugungi davr ijodkorlarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Maqolada ta'lim va tarbiya g'oyasi jadidlar va yangi davr yozuvchisi bo'lmish Shahodat Isaxonova ijodida qiyosiy va uyg'unlik jihatidan o'rganilgan va tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Shahodat Isaxonova, "Katta "A" va kichkina "a", "Tosh nok", "Sovchilar", ta'lim, tarbiya.*

Аннотация. *Представители джадидского движения, такие как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Мунавваркори Абдурашидханов, разрабатывали собственные программы просвещения и воспитания народа, а также призывали народ к просвещению и образованию своими многозначительными произведениями. Эта идея ярко проявляется и в творчестве современных творцов. В статье исследуется и анализируется идея просвещения и воспитания в произведениях джадидов и писательницы нового времени Шаходат Исахановой с точки зрения сравнения и гармонии.*

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханов, Фитрат, Шаходат Исаханова, «Большая «А» и маленькая «А», «Таш Нок», «Совчилар», образование, воспитание.*

Annotation. *Representatives of the Jadid movement, such as Mahmudkhodja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, developed their own programs to enlighten and educate the people, and also called on the people to educate and educate with their highly meaningful works. This idea is also clearly manifested in the creators of today. The article studies and analyzes the idea of education and upbringing in the works of Jadids and the writer of the new era, Shahodat Isakhanova, in terms of comparison and harmony.*

Keywords: *Mahmudkhodja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Fitrat, Shahodat Isakhanova, "Big "A" and small "a", "Tash Nok", "Sovchilar", education, upbringing.*

KIRISH

Xalq orasidan yetishib chiqqan jadid adabiyotining yorqin vakillaridan bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar xalqning bilimli bo'lishiga va shu orqali mamlakat rivojiga, mehnatkash xalq hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi asarlar yaratadilar, maktablar tashkil qiladilar. Ularning ta'lim va tarbiyaga oid asarlarini o'rganish bugungi davr uchun ham muhimdir. Shunday ekan hozirgi kunda ushbu g'oyani ilgari suradigan asarlar jadidlar davomchisi sifatida yaratilmoqda. Bugungi davrning zalvorli yozuvchisi bo'lmish Shahodat Isaxonova ham o'zining samarali ijodi bilan bugungi o'qitish jarayonlarini to'g'ri tashkil qilishga, o'ziga to'q va rivojlangan mamlakat farzandlarini ilm yo'liga hamda to'g'ri yo'ldan adashmaslikka boshlashga o'z hissasini yetarlicha qo'shmoqda. Ya'nikim, zamonaviy adabiyot vakili "to'qlikka sho'xlik" qilayotgan ba'zi yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash va qadriyatlarni unutayotgan, behurmatlik fazilatini o'ziga tumor qilib taqib olgan ba'zi insonlarga dars bo'lishi uchun xizmat qiladigan asarlar yaratmoqda. Bunga misol tariqasida yozuvchining "Katta "A", kichkina "a" va "Tosh nok" hikoyalarini keltirishimiz mumkin.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Jadidlarning ijtimoiy didaktik g'oyalarini to'liq namoyon etuvchi ba'zi ta'limiy va tarbiyaviy g'oyalarni o'zida jam qilgan asarlari va bugungi kunda ushbu g'oyani davom ettirish maqsadida yaratilgan zamonaviy adabiyot vakili Shahodat Isaxonovanning yuqorida keltirgan asarlarini qiyoslash va asarlar matnidani parchalar keltirish orqali tahlil qilishdan iborat. Ta'limiy va tarbiyaviy ruhda yaratilgan jadid adabiyotidagi asarlar ushbu adabiyotning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa didaktik nasrning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Ta'lim va tarbiya g'oyasi aks etgan asarlar yuqorida ta'kidlaganimiz va undan tashqari deyarli barcha jadid adabiyoti vakillarida uchraydi. Shuningdek, ba'zi jadidlarning ushbu g'oya to'g'risida fikrlari ham mavjuddir. Mahmudxo'ja Behbudiyaning "Padarkush" dramasi keltiradigan bo'lsak, unda o'qimagan, ilm uchun emas keraksiz, jaholatga boshlovchi amallarni bajarib hattoki o'z otasining o'limiga sababchi bo'lgan bolaning ahvoli keltirilgan: "Gap, gap ila vaqtni o'tkararsizlar, buyuratug'on bo'lsanglar, buyuringlar, ertaroq kelsun, kayf qilayluk...", "Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema'nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o'qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz." Ushbu parchalardan shuni ko'rsatadiki, Behbudi o'z asari bilan, xalqni o'qimoqlikka, turli maishat va kayf-u safo ishlaridan tiyilmoqlikka yoshlarni xalqni

qaytarmoqlikka da'vat qiladi. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi jumllarini keltirish o'rinlidir: "Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sturmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan da'voni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur"⁹⁰. Avloniy pedagog sifatida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi, uni bola tug'ilganidan to umrining oxirigacha davom etadigan, vujudni quvvatlantiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, axloqni chiroyli qiluvchi, zehnini o'tkirlashtiruvchi sifatida baholaydi. Tarbiya avvalo, uyda ona vazifasi orqali, keyin esa maktab va madrasada muallim va mudarrislar tomonidan amalga oshirilishi kerakligi haqida aytadi. Bundan tashqari, badan tarbiyasini: "Jism ila ruh ikkisi bir cho'ponning o'ng ila terisi kabidur", desa, fikr tarbiyasi "... muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifa", axloq tarbiyasini esa "insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi" sifatida ta'riflaydi.

Abdurauf Fitrat ham barcha jadidlar singari xalqni ilmi bo'lishini, jamiyatning ahvolini yaxshilashga, maktablar ochib, metodik qo'llanmalar tayyorlashga harakat qiladi. U ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan "Rahbari najot" asarida ilm va ma'rifatga oid qarashlarini aks ettiradi. U ham Avloniy singari 3 xil tarbiya haqida so'z yuritadi, badan tarbiyasini baxt-saodatga erishishning kaliti, fikr tarbiyasini insonning aqlini kamolga yetkazish uchun qobiliyatli qilib tarbiyalash sifatida baholaydi. Fitrat yana bolalarni fikr qilishda isbot bo'lishiga o'rgatishni, ya'ni ularga doim to'g'ri, rost ma'lumotlar berishni hamda xotiralarida beasos, botil fikrlarning joy olishiga yo'l qo'ymaslikni, aks holda ulg'ayganlaridan keyin ham ana shu beasos fikrlarga tartib berib noto'g'ri muhokama qilishlari mumkinligini, natijada esa xato yo'llarga kirib zarar ko'rib qolishlari mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari u bolalarni ma'lum fikrlar asosida to'g'ri xulosa qilishga, muhokama qilishga, isbotlab tushuntirishga o'rgatish lozimligi haqida fikr bildiradi. Shuningdek, Fitrat axloq tarbiyasida bolalarni yomon amallardan qaytarish, axloq qoidalarini o'rgatish lozimligi, axloq tarbiyasi oila muhitidan boshlanib, maktabda davom etishi, o'qituvchilar esa "eng avvalo, o'zlari chiroyli axloq sohiblari bo'lishlari shart" ekanligi haqida fikr bildiriladi.

Shunday ekan, yuqoridagi fikrlar borasida bugungi davr adabiyotida ham ularni dalillovchi hamda ushbu g'oya va fikrlarni o'zida aks ettiruvchi asarlar ham uchraydi. Shulardan biz Shahodat Isaxonovanning "Katta "A" va kichkina "a" hikoyasini keltirishimiz mumkin. Ushbu asarda avvalo "Mustaqil" terminiga yuzlanadigan bo'lsak, bu so'z xuddiki

⁹⁰ Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.

jadidlar bergan ta'rifni qisman bo'lsa-da, bera olgan. «Endi sizlar bog'cha bolasi emassizlar. Mustaqil odamsizlar!

«Mustaqil» degap gapni tushunasizlarmi o'zi?

Bolalar shoshib bir-birlariga qarashdi. Yo'q, deyishsa, muallima opa koyib berishini o'ylabmi, hech kim miq etmadi.

— «Mustaqil» degani — bu endi o'zlaring aql farosat bilan ish tutasizlar, degani. Chunki, yana qaytarib aytaman, endi bog'cha bolasi emas, katta odamsizlar! — Muallima opa qo'llarini ko'ksida chalishtirib deraza yoniga bordi va ko'zoynagi ostidan yana ham katta va cho'kik ko'rinadigan o'ychan ko'zlarini bolalarga tikdi. Xayolidan nimalarnidir o'tkazdi. Shu jumladan kelib chiqadiki, Shahodat Isaxonova ham bizning ma'rifatparvar jadidlarimiz singari xalq bolalarini mustaqil va hurfikrli, ahamiyatga ega bo'lmagan, keraksiz mayda ishlar bilan shug'ullanmaslik g'oyasini ilgari surganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

— Bolalar, — dedi, — bilib qo'yinglar, bu yerda oddiy bolalar emas, kelajak o'tiribdi!

Bu gapni eshitib hamma ag'rayib qoldi. «Rost-da, qanaqa kelajak o'tirishi mumkin? Kim o'zi, opalari aytayotgan kelajak?» Muallima opa ularning yuzidagi ajablanishni sezdimi, stolda yotgan ko'rsatgich tayoqni oldi-da, baland ko'tarib: «Kelajak bu — sizlar», — dedi.

Yuqoridagi jumladan ham shuni ko'rishimiz mumkinki, tarbiya va ta'limning qayerga yetaklashi, albatta, o'qituvchining mahoratli pedagog ekanligiga bog'liqdir. Asarda ham o'qituvchi boshlang'ich ta'lim bolalariga, avvalo kelajak haqida, uning nima ekanligi haqida go'zal tarzda ta'lim va tarbiya berilishi aks etgan.

Shahodat Isaxonovanning «Katta A va kichkina a» hikoyasi bolalarga berilgan ta'lim va tarbiyaning hayotdagi amaliy natijasini ko'rsatadi. Muallima o'rgatgan «mustaqil bo'lish» va «kattalarga yordam berish» g'oyasi o'quvchi bolaning qalbida chuqur o'rnashadi. Bola yo'lda yolg'iz qolgan kampirga befarq bo'lmay, uning dardiga sherik bo'lishga harakat qiladi va o'g'liga xat yozib berishni o'z burchi deb biladi. Bu orqali asarda mehr-oqibat, insonparvarlik va mas'uliyat kabi fazilatlar ulug'lanadi. Hikoya yosh kitobxonni bilimni faqat o'rganish uchungina emas, balki odamlar hayotini yaxshilash uchun ishlatishga undaydi. Buni esa quyidagi jumlada yaqqolroq ko'rishimiz mumkin: «Oyposh xola, rost aytyapman, mana ko'rasiz, bir oydan keyin hamma harflarni bilib olaman, — dedi shoshib, azbaroyi kuyib pishgandan yuzi qizarib, bo'g'riqib ketdi. — Keyin siz aytib turasiz, men yozaman. Hammasini yozaman. Keyin o'g'lingiz qaytib keladi. Shunaqa! Men o'zimni o'ylamayman, men endi mustaqil odamman. Muallima opamiz aytdilar. «Endi sizlar mustaqil odamsizlar, o'zlaringizdan kattalarga yordam berishlaringiz kerak», dedilar, bildingizmi?

Oyposh xolasining tund chehrasi asta-sekin yorisha boshladi. Peshonasidagi tirishlar yozildi. Ikki qoshi o‘rtasidagi tuguncha ham yo‘qoldi. Etlari shalvirab qolgan chap qo‘lini peshonasiga soyabon qilgancha, o‘ng qo‘li bilan uning yelkalariga qoqdi:

— Ishonaman, bolam, ishonaman...”

Bundan tashqari adibaning “Tosh nok” hikoyasi ham insonlarni bir-biriga mehrli bo‘lishga, bir-birlarini vaqtida qadrlashga, hurmat va izzat tuyg‘ularini abadiy saqlashga undaydi. “Sovchilar” hikoyasi esa milliylik, qiz bolada va hattoki uning onasida ibo va hayo, qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘usi yorqin aks etgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyotida ta’lim va tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etilgan bo‘lib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida ilm-ma’rifat, axloqiy poklik va barkamol avlod tarbiyasini eng muhim ijtimoiy vazifa darajasiga ko‘targanlar. Ular jaholat va nodonlikni xalqni tanazzulga olib boruvchi illatlar sifatida keskin qoralab, ta’lim-tarbiyani esa insonni komillikka yetaklovchi yagona yo‘l deb bilganlar.

Mazkur tadqiqot jarayonida aniqlanganki, jadidlarning bu ilg‘or g‘oyalari bugungi zamonaviy adabiyotda ham o‘z davomiyligini topmoqda. Xususan, Shahodat Isaxonova ijodida yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ularni ma’naviy yetuklik, mas’uliyat va ongli hayotga undash g‘oyalari badiiy talqin orqali yoritilgan. Yozuvchining asarlarida tarbiyaviy-didaktik ruh jadid adabiyoti an’analari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, jadidlar va zamonaviy adabiyot vakili Shahodat Isaxonova ijodini qiyosiy tahlil qilish orqali ta’lim va tarbiya g‘oyasining uzluksizligi, davrlararo badiiy va g‘oyaviy bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu holat adabiyotning nafaqat estetik, balki ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini ham yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur g‘oyalarni o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Isaxonova Sh. “Tosh nok” hikoyasi
3. Isaxonova Sh. “Katta “A” va kichkina “a” hikoyasi
4. Isaxonova Sh. “Sovchilar” hikoyasi